

Jo'rayeva Muyassarbonu

Termiz davlat muhandislik
va agratexnologiyalar universiteti

mengortiqovrashit@gmail.com

Annotatsiya: Pomidor (lotincha: *Solanum lycopersicum*) bir yillik, tropik iqlimlarda ko'p yillik o't o'simlikdir. Sabzavot ekini sifatida keng ekiladi. Ilmiy terminologiyada **tomat** nomi ishlatilsa-da, O'zbekistonda o'simligi ham, mevasi ham pomidor yoki „pamildori“ (xalq orasida) deb yuritiladi. Pomidor italyancha *pomo d'oro* so'zidan olingan bo'lib, „oltin olma“ degan ma'noni anglatadi. Ingliz, yapon, koreys tillarida *tomato*, xitoy tilida *shu fan qie*, fransuz tilida *arbe a tomates, tomate arbustive*, nemis tilida *tomatobaum, zbaumtomate, baumtomatenstrauch*, ispan tilida esa *tomate* deb nomlanadi. Pomidor ilk bor Amerika materigida kelib chiqqan. Keyinchalik ispanlar Amerikada mustamlakalar o'rnatish boshlaganidan so'ng butun dunyoga tarqalgan. Hozirgi kunda pomidorning juda ko'p navi dunyoning turli mamlakatlarida yetishtiriladi.

Kalit so'zlar: nav, vegetativ organ, duragay navlar, yorug'sevar, nam sig'mi, virusli kasalliklar, bo'rtma nematoda.

Pomidorning vatani Janubiy Amerika hisoblanadi. Pomidor Yevropaga XVI asrda kirib kelgan bo'lsada, uzoq vaqt davomida manzarali va dorivor o'simlik sifatida o'stirilgan. XVIII asir ohirida pomidor oziq-ovqat sifatida yetishtirila boshlaydi. XIX asr o'rtalarida esa Rossiya va Yevropa janubiga keng tarqalib o'tgan asirning oxirlaridan boshlab O'rta Osiyoda ham ekila boshlagan.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 5,0 mln. gektar maydonga ekilib 171,0 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi. Hosildorligi bo'yicha o'rtacha 35t/ga bo'lib yuqori hosildorlik Belgiya, Niderlandiya, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Islandiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi. Asosiy pomidor yetishtiruvchi davlatlar Xitoy, Hindiston, AQSH, Eron, Braziliya, Italiya, Ispaniya, Braziliya, Meksika, Rossiya, O'zbekiston hisoblanadi.

Pomidor issiqsevar o'simlik.uning urug'i 10-12 °C haroratda una boshlaydi.O'simlikning normal o'sib revojlaniishi uchun harorat 25 °C atrofida bo'lishi kerak.Harorat 15 °C dan pasayganda ko'pchilik navlarning gullashi to'xtab,harorat 10 °C dan pasayganda esa vegetativ organlar ham o'sishdan to'xtaydi.Harorat -0,5 °C ga pasayganda pomidor gullariga halokatli ta'sir ko'rsatadi –mevada sovuq urgan dog'lar paydo bo'ladi.Harorat -1-2 °C tushsa,o'simliklar butunlay nobud bo'ladi.Pomidorning hozirgi vaqtda yaratilgan duragay navlari bundan mustasno,chunki ular -3-4 °C sovuqqa bardosh bera oladi.Duragay urug'larni sovuq sharoitda parvarish qilish,shuningdek nish urgan urug'larga va yangi unib chiqqan maysalarga past yoki o'zgaruvchan harorat ta'sir etish yo'li bilan pomidor o'simligining past haroratga nisbatan chidamliligini oshirish mumkin.

Pomidor yorug'sevar o'simlik.Yorug'likning yetarli bo'lmasligi o'simlikning o'sish va rivojlanishini sekinlashtiradi.Pomidorning ko'pchilik navlari yorug'lik 10-12 soat davom etadigan kunlarda yaxshi rivojlanadi,lekin ba'zi navlar kun uzunligi qisqarganda,ayrimlari esa aksincha bir muncha uzaygach yaxshi o'sadi.Pomidor barglarining suv bug'larish sathi katta bo'lib,baquvvat yer ustki massasi hosil qiladi,bunday massaning vujudga kelishi uchun esa ko'p miqdorda suv talab qilinadi.Shuning uchun ham pomidor o'simligi ayniqsa yoppasiga meva tugish davrida tuproq namiga talabchan bo'ladi.Tuproqning nam sig'imi 70% bo'lishi kerak.Bu davrda suv yetishmasa,o'simlikning tuguncha va mevalari to'kila boshlaydi.Shu bilan birga pomidor o'simligi havo namligi mo'tadil 45-60% bo'lishini xohlaydi.Havo namligi bundan oshib ketsa,tuguncha yaxshi urug'lanmay qoladi va to'kilib ketadi hamda zamburug' kasalliklari paydo bo'ladi.

Pomidorning namga bo'lgan talabi parvarishlash usuliga bog'liq.Ko'chatdan yetishtirilgan va ildiz sistemasi yuzaroq tarqalgan pomidor o'simligi,bevosita urig'i ekib o'stilgan va ildiz sistemasi ancha chuqur joylashgan pomidorga nisbatan namni ko'p talab qiladi.Harorat va namlik sharoitlari qulay bo'lganda urug' ekilgandan 4-5 kun o'tgach,maysalar ko'rina boshlaydi,3-5 kun o'tgandan keyin esa birinchi chin barg chiqadi.Shundan keyin paydo bo'ladigan barglar tobora murakkablasha boradi va yettinchi va sakkizinchi bargdan boshlab yetuk o'simliklar bargining hamma belgilari shakllanadi.O'simlikda tezpishar navlarda 5-7,kechpishar navlarda esa 10-11 ta barg chiqargandan keyin dastlabki to'pgul-shingil paydo bo'ladi.

Pomidor o'simligi naviga va parvarishlash sharoitiga qarab maysa ko'ringandan keyin 50-70 kun o'tgach gulga kiradi.Gullashdan keyin 40-55-kunlari mevalar yetila boshlaydi.Urug' bevosita dalaga ekilganda o'suv davri 70-90 kun davom etadi.Odatda kuzgi dastlabki sovuq tushishi bilanoq pomidorning o'suv davri

to'xtaydi.



Pomidor g'o'za tunlami (ko'sak qurti) kuzgi tunlam bargini asosan mevasini kuchli shikastlaydi. Ularga qarshi ekinzorlarga trixogramma qo'yiladi. Kimyoviy usulda esa gektariga vertimek (0,4-0,5 l/ga), tarmp (0,25 l/ga), fastak (0,1 l/ga), talstar (0,5 l/ga) sepiladi. Barglarning qo'ng'ir dog'lanishiga qarshi yopiq maydonlar yuqumsizlantiriladi. Urug'lar ekish oldi o'simliklar o'suv davrida istiqbolli ekologik sof kimyoviy preparatlar bilan ishlanadi. Umuman, pomidor ekini bir meyorda sug'orilib, tuproq va havo namligi qulay darajada saqlab turilsa, qo'g'ir dog'lanish mevaning uchidan chirish kasalligi keskin kamayadi.

Hozirgi paytda pomidor ochiq va yopiq maydonlarda virusli kasalliklar (stolbur, struk va mozaika) bilan kasallanmoqda. Ularga qarshi urug'lar ekish oldi termik ishlanib, 2 sutka davomida 50-52 °C da, so'ng 1 sutka mobaynida 80 °C li termostatda qizdiriladi. Qizdirilgan urug'lar so'ngra 0,03% metelin ko'ki yoki 0,8-1% li kaliy permanganat eritmasida ivitiladi va ekiladi.

Bo'rtma nematoda dunyoning barcha mintaqalari, jumladan Amerika, Afrika, Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan bo'lib u barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining xavfli zararkunandasi hisoblanadi. Dunyo bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligiga ushbu zararkunanda ta'sirida yetkaziladigan har yilgi zarar 77 mlrd. AQSH dollorni tashkil etadi. Shu bois butun dunyoda, xususan respublikamizda pomidorning bo'rtma nematoda kabi eng xavfli zararkunandalarga chidamli navlarini yaratish va ularni ishlab chiqarishga keng joriy qilish bo'yicha seleksiya ishlarini kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa:

Ushbu maqolani yozib, shu xulosani aytishim mumkinki: Pomidor o'simliginig isiqlik va yorug'lik meyyoridan ortib yopki kamayib ketishi narijasida sodir bo'ladigan salbiy jarayonlar hamda suvga bo'lgan talabini, o'simlikning yer osti va yer usti massasini hosil qilishda suvning ahamiyatini, suv bug'latish satxi kattaligi sababli ko'psuv ta'lab qilishi kabi bealogik hususiyatlarini. Bundan tashqari pomidor o'simligiga salbiy ta'sir qiladigan verusli kasalliklar, g'o'za tunlami, bo'rtma nematoda kabi havfli zararkunandalar va ular qarshi kimyoviy periparatlardan foydalanish va kasallika chidamli navlar yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балашев Н.Н Земап Т.О-Сабзавотилик .Т. Укитувчи 1977.-Б. 406.
2. Oripov P.O. –O'simlikshunoslik .Т. 2006. 166-183 bet.
3. Ostanauqulov T.E -Sabzavotlar yetishtirish texnologiyasi .Т. 2003. 333-bet.
4. Jumanov, D., Qodirov, A., Xo'jaev, P., & Joxonov, S. (2020). PAXTA TOLA TEXNOLOGIK PARAMETRELARIGA BO'LMA VA O'ZIQLANISH REJIMLARI VA PARTA QOLINLIGINING TA'SIRI. Nazariy va amaliy fanlar , (4), 77-80.
5. Nadjiev, J., Jumanov, D., Amirov, X., Karimov, A., & Norsaidova, Z. (2024). Ildiz nematodlariga chidamli erta pishgan patlican navlarini tanlash. E3S Web of Conferences da (486-jild, 02035-bet). EDP fanlari.
6. Toshtemirovich, J. D., Imomov, C. M., & Tojiyeva, S. O. (2023). AGROTEXNIK OMILLARNI UYG'UNLASHGAN XOLDA QO'LLASHNING G'O'ZA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. AGROINNOVATSIYA , 1 (1), 37-45.
7. Maxsudovich, B. S., Abdirashit, A., Dilshod, J., Nurali, A., & Odil, B. (2021). ORGANO-MINERAL KOMPOSTLARDAN MELIORANTLAR SIFATIDA FOYDALANISHNING MUHIMLIGI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali , 9 (12), 528-532.
8. Jumanov, DT, Rizaev, A., Oripov, R., & Toshtemirov, A. (2007). Uyg'unlashtirilgan texnologiya elementlarini asoslash. AGRO ILM jurnalining ilmiy qo'llanilishi "O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Maqsadli son , 1 (1), 2-3.

9.Jumanov, DT (2007). Sug'orish normasi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali , (4).

10.Jumanov, DT, Qo'ziboyev, J.B., & Izzatullayev, LA (2023). Optimallashtirish sharoitida g'o'za hosildorligiga agrotexnik omillarning ta'siri. BIO Web of Conferences da (71-jild, 01078-bet). EDP fanlari.

11.Jumanov, DT, Qo'ziboyev, J.B., & Izzatullayev, LA (2022 yil, dekabr). Qishloq xo'jaligi texnologiyasi va paxta hosildorligi. IOP konferentsiyalari seriyasida: Yer va atrof-muhit fanlari (1112-jild, № 1, 012025-bet). IOP nashriyoti.

